

9-sinf adabiyot. 3-BSB (25 ball)

Insho

Insho yozish uchun mavzular:

1. “Ogahiy g‘azallari haqida o‘ylarim”.
2. “Furqat – ma’rifatparvar shoir”.

Insho yozish bosqichlari:

1. Qiziqishlaringiz asosida yuqoridagi mavzulardan birini tanlang.
2. Tanlagan mavzungizni chuqur o‘rganib chiqing.
3. O‘ylaringizdagi fikrlarni tartiblang (masalan, qaysi fikrimni oldin, qaysi birini oldingi fikrimdan keyin joylashtiraman... kabi).
4. Fikrlaringizni dalillash uchun ko‘chirmalar yig‘ing.
5. Tanlagan mavzungiz asosida puxta reja tuzing.
6. Tezis (qisqa ifoda) yozib oling.
7. Yozganlaringizni tahrirlang.
8. Oqqa ko‘chiring.
9. Qayta tahrirlang.
10. Taqdim eting.

Baholash mezonlari (25 ball)

Inshoni bosqichlar asosida, to‘g‘ri ketma-ketlikda yozgan, fikrlarini tartib bilan ifoda etgan, mavzuga mos reja tuza olgan, qarashlarini asoslab bergan, matnni tahrirlagan, shuningdek, ishni o‘z fikr-mulohazalari asosida boyitgan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalgan hamda zamon bilan bog‘lay olgan, xulosalarini aniq bayon qila olgan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga amal qilgan holda yozgan bo‘lsa –	20 – 25 ball
Inshoni bosqichlar asosida yozgan, fikrlarini tartib bilan ifoda etishda biroz chalkashliklar kuzatilganligi sabab qarashlarini to‘liq aks ettira olmagan; ammo mavzuga mos reja tuza olgan, matnni tahrirlagan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalgan hamda zamon bilan bog‘lay olgan, xulosalarini bayon qila olgan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga amal qilgan holda yozgan bo‘lsa –	19 – 24 ball

Inshoni yozish mobaynida bosqichlarga to‘liq amal qilmagan, shu sabab fikrlar tartibida biroz chalkashliklar kuzatilgan, reja mavzuni to‘liq ochib bera olmagan, qarashlarini qisman asoslagan, ishda o‘z fikr-mulohazalari to‘liq aks etmagan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalgan, ammo zamon bilan bog‘lay olmagan, xulosalarini bayon qila olgan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga to‘liq rioya qilmagan bo‘lsa –	10 – 18 ball
Inshoni yozish mobaynida bosqichlarga amal qilmagan, shu sabab fikrlar tartibida chalkashliklar kuzatilgan, reja mavzuni to‘liq ochib bera olmagan, qarashlarining ayrimlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalmagan, zamon bilan bog‘lay olmagan, xulosalar ham juda jo‘n bayon qilingan bo‘lsa –	5 – 9 ball
Inshoni yozish mobaynida bosqichlarga amal qilmagan, shu sabab fikrlari chalkash; ish rejasi izchil emas, ko‘p o‘rinlarda mavzudan chetga og‘ish kuzatilgan; qarashlarining ayrimlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalmagan, zamon bilan bog‘lay olmagan, ish xulosalanmagan bo‘lsa –	1 – 4 ball